O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.K.01.13.M RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

BOBOYAROVA NILUFAR SAYDULLAYEVNA

MAKTABDA KIMYONI SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K 372.854:004.8

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of the Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) Dissertation in Pedagogical Sciences

Boboyarova Nilufar Saydullayevna
Maktabda kimyoni sun’iy intellekt texnologiyalari asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish.....3

Бобоярова Нилуфар Сайдуллаевна
Совершенствование методики преподавания химии в школе на основе технологий искусственного интеллекта.....27

Boboyarova Nilufar Saydullayevna
Improving the Methodology of Teaching Chemistry in Secondary Schools Based on Artificial Intelligence Technologies.....53

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....58

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.K.01.13.M RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

BOBOYAROVA NILUFAR SAYDULLAYEVNA

MAKTABDA KIMYONI SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Ped8144 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nuu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ixtiyarova Gulnora Akmalovna** kimyo fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Bozorov Nurad Ismatovich** kimyo fanlari doktori, dotsent
	Berdiqulov Ravshan Shavkatovich pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori PhD, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Navoiy davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.K.01.13.M raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil «23» 11 soat 11:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-67-35/ faks: (99871) 246-02-24, e-mail: chem0102@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (295-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-67-35.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «17» 11 kuni tarqatildi.

(2026-yil «13» 11 dagi 3/1 raqamli reestr bayonnomasi).

T.S. Xoliqov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy raisi, k.f.d., professor

U.O‘.Ro‘zmetov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash kotibi, k.f. d., professor (v.b)

I.A.Abdugafurov
Bir martalik ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda hozirgi kunda raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimiga sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal kirib kelishi kimyo fanini o‘qitish metodikasini zamonaviylashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Kimyo fanini o‘qitishda murakkab nazariy tushunchalar, atom-molekulyar jarayonlar, kimyoviy reaksiya mexanizmlari va maktab laboratoriya tajribalarini interaktiv hamda vizual shaklda tushuntirish orqali an’anaviy yondashuvdagi abstraktlikni bartaraf etish imkoniyatlari kengayib bormoqda. O‘quvchilarning mustaqil izlanish va amaliy kompetensiyalarini shakllantirishdagi mavjud muammolarni hal etishda sun’iy intellekt asosidagi adaptiv o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash, xususan, o‘quvchilarning bilim darajasini individual tahlil qilish, differensial topshiriqlar yaratish va real vaqt rejimida tahliliy-tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali o‘quv jarayonini individuallashtirish muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda yetakchi tadqiqotchi olimlar va ilmiy markazlar tomonidan ta’lim jarayonlarini raqamlashtirish hamda sun’iy intellekt texnologiyalarini o‘quv amaliyotiga uzviy integratsiya qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, katta hajmdagi ma’lumotlarni (Big Data) tahlil qilish, bilimlarni baholashning avtomatlashtirilgan mexanizmlarini joriy etish, o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan ta’limni tashkil etish hamda interaktiv o‘quv muhitini yaratish kabi SI imkoniyatlaridan foydalangan holda, kimyo fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha keng qamrovli izlanishlar olib borilmoqda. Aynan ushbu izlanishlar kimyo ta’limida zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda sun’iy intellektga asoslangan innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlarni yanada rivojlantirishda o‘ziga xos ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda umumiy o‘rta ta’lim tizimini raqamlashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga uzluksiz joriy etish hamda tabiiy fanlarni o‘qitish sifatini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida ta’lim, ilm-fan va raqamli iqtisodiyot sohalariga ushbu texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha qator muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur huquqiy-me’yoriy hujjatda zamonaviy raqamli ta’lim platformalarini rivojlantirish, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirish, interaktiv ta’lim muhitini yaratish hamda sun’iy intellektga asoslangan o‘quv resurslaridan samarali foydalanish kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilangani bevosita kimyo fanini sun’iy intellekt asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish, maktab o‘quvchilari tomonidan kimyoviy bilimlarni chuqur o‘zlashtirishini ta’minlash hamda o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish bo‘yicha amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlar dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini

tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori,[1] 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori,[2] 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari,[3] 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”,[4] 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini yaratish va ulardan foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari[5] ta’lim tizimiga sun’iy intellekt, raqamli ta’lim texnologiyalarini keng joriy etishga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar mazkur tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishida innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda elektron ta’lim, raqamli o‘quv resurslari hamda innovatsion metodikalarning nazariy va amaliy asoslari R.E. Jumamuratov, V.E. Ergashev, F.A. Alimova, M.Sh. Ahadov, D.S. Sarimova, I.E. Shernazarov, X.N. Xasanova, G.I. Sapayeva, N.X. Jo‘raqulova, G.B. Bekmanova, Sh.X. Shomurotova kabi olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Mazkur tadqiqotchilar tomonidan pedagogik portallar, elektron darsliklar yaratish hamda ta’lim jarayonida o‘qituvchining fasilitatorlik (yo‘naltiruvchi) rolini oshirish kabi masalalar doirasida salmoqli natijalarga erishilgan. Biroq, ushbu ilmiy izlanishlarning aksariyati umumiy didaktik tamoyillarni tadqiq etishga qaratilgan bo‘lib, sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini bevosita kimyo darslari bilan integratsiyalash hamda uning pedagogik samaradorligini eksperimental (tajriba-sinov) asosda tekshirish masalalari yetarlicha o‘rganilmay, ochiq qolib kelgan.

MDH mamlakatlarida faoliyat yuritayotgan olimlardan D. Raxmet, B. Kiikov, A. Akbope (Qozog‘iston), A.S. Gorodenskaya, E.S. Artemyeva, S.G. Chaykov, D.N. Kojevnikov (Rossiya) kabi tadqiqotchilar sun’iy intellekt, interaktiv axborot muhiti, virtual laboratoriyalar, raqamli topshiriqlar hamda kimyoviy jarayonlarni modellashtirishning ayrim pedagogik xususiyatlarini alohida o‘rganishgan.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, https://lex.uz/docs/7093365

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, https://lex.uz/docs/4749263

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, https://lex.uz/docs/6600404

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, https://lex.uz/docs/4312785

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, https://lex.uz/docs/5297051

Xorij mamlakatlarida sun’iy intellekt texnologiyalari asosida ta’lim jarayonini tashkil etish bo‘yicha Sh. Mandina (Zimbabve), Z. Tatlı (Turkiya), A.I. Gambari (Nigeriya), M.C. Manyilizu (Tanzaniya), R. Blonder, Y. Feldman-Maggor (Isroil), J. Huwer (Germaniya), F. Lizano-Sánchez (Kosta-Rika) va T.M. Clark (AQSh) kabi xorijiy olimlar tomonidan keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Sh. Mandina kimyo ta’limida SI vositalaridan, Z. Tatlı va A. Ayas 9-sinf kimyo darslarida virtual laboratoriyalardan, A.I. Gambari virtual laboratoriya hamda hamkorlikdagi ta’limdan, M.C. Manyilizu esa laboratoriya jihozlari yetishmaydigan maktablarda virtual tajribalardan foydalanish metodikasini tadqiq qilgan. O‘z navbatida, R. Blonder, Y. Feldman-Maggor va J. Huwer generativ SIni kimyo ta’limiga pedagogik jihatdan to‘g‘ri integratsiya qilish, o‘qituvchilarning SI kompetensiyasini oshirish hamda SI javoblarini tanqidiy baholash masalalarini o‘rgangan bo‘lsa, F. Lizano-Sánchez masofaviy kimyo laboratoriyasiga SI yordamchisini tatbiq etgan, T.M. Clark esa ChatGPT tizimining kimyoviy savollarga bergan javoblarini tanqidiy tekshirish zaruriyatini ilmiy asoslagan.

Mazkur xorijlik mualliflarning ilmiy ishlari ushbu dissertatsiya tadqiqoti uchun uchta asosiy yo‘nalishda metodologik tayanch vazifasini o‘taydi: birinchidan, generativ SI javoblarini ishonchli ilmiy manbalar orqali verifikatsiya qilish ehtiyoji (T.M. Clark, R. Blonder, Y. Feldman-Maggor, J. Huwer); ikkinchidan, virtual laboratoriyalarning didaktik funksiyasi va ularning real tajribalarga nisbatan tutgan o‘rni (Z. Tatlı, A.I. Gambari, M.C. Manyilizu, F. Lizano-Sánchez); uchinchidan, o‘qituvchining SI bilan ishlash kompetensiyasi hamda uning vositachi-nazoratchi sifatidagi roli (J. Huwer, Sh. Mandina). Shu bilan birga, joriy tadqiqotda sun’iy intellekt ta’limi, mashinali o‘qitish algoritmlariga asoslangan adaptiv tizimlar, intellektual tyutorlar, onlayn va ta’lim texnologiyalari, mustaqil ta’lim hamda kognitiv fanlar yo‘nalishidagi zamonaviy xalqaro tadqiqotlar natijalari ham tahlilga jalb etildi.

Biroq, tahlil qilingan ushbu ishlarning birortasida sun’iy intellekt texnologiyalari maktab kimyo kursining muayyan mazmuniy bo‘limlari doirasida takroran bajariladigan va ilmiy verifikatsiya bosqichi majburiy etib belgilangan yaxlit metodik sikl shaklida amaliyotga joriy etilmagan (operatsionallashtirilmagan). Aynan ushbu mavjud metodik bo‘shliqni to‘ldirish zarurati mazkur dissertatsiya ishining bosh ilmiy muammosini tashkil etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlar rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Pedagogika sohasidagi hududiy ta’lim muammolarini hal etishga yo‘naltirilgan ilmiy-metodik tadqiqotlarni raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt imkoniyatlari, innovatsion texnologiyalar va ilg‘or xorijiy tajribalarni integratsiyalash vositasida rivojlantirish hamda takomillashtirish” nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8–9-sinflarida kimyo fanini o‘qitish metodikasini sun’iy intellekt texnologiyalarini loyihaviy ta’lim, hamkorlikdagi ta’lim va keys-stadi (case study) metodlari bilan integratsiyalash asosida takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

8–9-sinflarda kimyoning metallmaslar va metallar mavzularini sun’iy intellekt vositalari, loyihaviy ta’lim, hamkorlikdagi ta’lim va Case Study metodi asosida o‘qitishning pedagogik modelini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini asoslash;

kimyo darslarida sun’iy intellektdan foydalanishning diagnostika, adaptiv topshiriq, generativ yordam, ilmiy tekshiruv, qayta aloqa va o‘qituvchi qarori bosqichlarini qamrab oluvchi metodik siklini ishlab chiqish hamda uni texnologik xaritalarda aks ettirish;

metodikani amalga oshirish uchun o‘quv-metodik majmua va “chemia.uz” raqamli platformasini ishlab chiqish, o‘quvchilar bilimini baholash mezonlari hamda sun’iy intellektdan xavfsiz foydalanish qoidalarini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish;

metodikaning samaradorligini tajriba va nazorat guruhlaridagi o‘quvchilar bilim ko‘rsatkichlarining o‘sishini qiyoslash orqali baholash hamda tajriba-sinov natijalarini matematik-statistik usullar yordamida tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8–9-sinflarida kimyo fanini sun’iy intellekt texnologiyalari asosida o‘qitish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti: 8–9-sinflarda kimyoni sun’iy intellekt texnologiyalari asosida o‘qitish metodikasining mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari va pedagogik shart-sharoitlari.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqotda pedagogik, psixologik va metodik manbalar, didaktik adabiyotlar, DTS, o‘quv reja va dasturlar, o‘quv-me’yoriy hujjatlar, darslik va o‘quv-metodik adabiyotlarni qiyosiy o‘rganish va tahlil qilish, ijtimoiy-pedagogik (kuzatish, suhbat, tashxislash, so‘rovnoma, test), tajriba-sinov va monitoring usullari qo‘llanilgan. Olingan natijalar matematik-statistik usullar — tavsifiy statistika, Welch t-mezoni, kirish testi kovariat sifatida kiritilgan kovariatsion tahlil (ANCOVA), ko‘p darajali (aralash effektli) model, klaster-mustahkam standart xatolar, effekt hajmi ko‘rsatkichlari (Cohen’s d, Hedges’ g, qisman η^2), khi-kvadrat mezoni va Cramer’s V koeffitsiyenti hamda test ichki muvofiqligini baholovchi Cronbach alfa koeffitsiyenti — yordamida qayta ishlangan; shu asosda natijalarning ishonchliligi va amaliy ahamiyati aniqlangan hamda tegishli xulosalar chiqarilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

8–9-sinflarda kimyoning metallmaslar va metallar mavzularini o‘qitishning pedagogik modeli sun’iy intellekt vositalarini loyihaviy ta’lim, hamkorlikdagi ta’lim va keys metodi bilan integratsiyalash asosida takomillashtirilgan hamda uni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari asoslangan;

kimyo darslarida sun’iy intellektdan foydalanishning diagnostika, adaptiv topshiriq, generativ yordam, ilmiy tekshiruv, qayta aloqa va o‘qituvchi qaroridan iborat metodik sikli ishlab chiqilgan hamda har bir bosqichdagi o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati texnologik xaritalarda aniqlashtirilgan;

kimyoni o‘qitishning o‘quv-metodik ta’minoti adaptiv topshiriqlar, bilimni baholash mezonlari, sun’iy intellekt javoblarini ilmiy tekshirish va undan xavfsiz foydalanish qoidalarini “chemia.uz” raqamli platformasida o‘zaro bog‘liq holda qo‘llash asosida takomillashtirilgan;

takomillashtirilgan metodika qo‘llanilgan tajriba guruhlarida o‘quvchilar bilim ko‘rsatkichlarining o‘sishi nazorat guruhlariga nisbatan yuqori ekanligi boshlang‘ich bilim darajasi hamda sinf va maktab darajasidagi guruhlanishni hisobga olgan matematik-statistik tahlil asosida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. 8–9-sinf kimyo fanini sun’iy intellekt texnologiyalari asosida o‘qitish bo‘yicha pedagogik model ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etish uchun tavsiya etilgan;

sun’iy intellekt vositalari yordamida shakllantiriladigan adaptiv topshiriqlar va testlar tizimi ishlab chiqilib, u bilan funksional jihatdan farqlanadigan simulyatsion-vizual resurslardan (virtual laboratoriyalar va 3D modellar) o‘quv jarayonida bir-birini to‘ldiruvchi komponentlar sifatida foydalanish imkoniyati asoslab berilgan;

o‘quvchilarning bilim darajasini diagnostika qilish va monitoring qilishga mo‘ljallangan metodik-diagnostik vositalar majmuasi (kirish va chiqish testlari, baholash mezonlari hamda o‘quvchi faoliyatini kuzatish kartalari) ishlab chiqilgan va tajriba-sinov (2024–2025–yillarda) davomida barcha kirish va chiqish testlari dastlab texnik jihatdan “xm.ziyopedia.uz” va API-lokal muhitida o‘tkazilgan bo‘lib, tajriba yakunlangach, olingan natijalar asosida platforma modernizatsiya qilindi va rasmiy “chemia.uz” domeni ostida yagona tizimga birlashtirildi;

taklif etilgan metodika asosida kimyo darslarini tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar va darslik tayyorlangan;

sun’iy intellekt vositalari integratsiya qilingan kompleks metodikaning samaradorligi pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari bilan tasdiqlanib, uning o‘quvchilarning bilim darajasi va o‘quv faolligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: qo‘llanilgan yondashuv va usullarning tadqiqot maqsad hamda vazifalariga muvofiqligi, nazariy qismning amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar va tekshirilgan ilmiy manbalarga tayanishi, tajriba-sinov ishlarining Samarqand, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarining 13 ta umumta’lim maktabida 8–9-sinflarning 2473 nafar o‘quvchisi ishtirokida tajriba va nazorat guruhlari ajratilgan holda o‘tkazilishi, kirish va chiqish testlarining bir xil mazmuniy spetsifikatsiya va baholash mezonlari asosida qo‘llanilishi hamda olingan birlamchi ma’lumotlarning matematik-statistik usullar (kirish testi kovariat sifatida kiritilgan kovariatsion tahlil — ANCOVA, o‘quvchi–sinf–ta’lim muassasasi ierarxiyasi hisobga olingan ko‘p darajali aralash effektli model, Welch t-mezoni, klaster-mustahkam standart xatolar va effekt hajmi ko‘rsatkichlari) yordamida individual ballar darajasida qayta ishlanishi bilan ta’minlangan. Rasmiy manbalardan olingan yondashuv va usullar, nazariy ma’lumotlar qo‘llanilganligi, respublikamiz va xorijiy mamlakatlar olimlari hamda amaliyotchilarining ishlariga asoslanganligi; matematik-statistik usullar yordamida o‘tkazilgan tahlillar va eksperimental ishlarning samaradorligi tasdiqlanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan ta’minlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kimyoni o‘qitishda sun’iy intellekt vositalarini loyihaviy ta’lim, hamkorlikdagi ta’lim va keys metodi bilan integratsiyalashning pedagogik modeli

hamda uni amalga oshirish shart-sharoitlari asoslangani bilan belgilanadi. Diagnostika, adaptiv topshiriq, generativ yordam, ilmiy tekshiruv, qayta aloqa va o‘qituvchi qarorini birlashtiruvchi metodik sikl o‘quvchilarning kimyoviy bilimlarni o‘quv va hayotiy vaziyatlarda qo‘llashi, yangi vaziyatlarga ko‘chirishi hamda mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etishning metodik asoslarini aniqlashtiradi. Mazkur faoliyat yo‘nalishlari metodikaning didaktik imkoniyatlarini ifodalaydi; tajriba-sinovda bevosita baholangan natija o‘quvchilarning kimyoviy bilim ko‘rsatkichlaridir.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan texnologik xaritalar, dars ishlanmalari, adaptiv topshiriqlar, baholash mezonlari va “chemia.uz” platformasidan 8–9-sinflarning kimyo darslarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. O‘quv-metodik majmua o‘quvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini, guruh muhokamasini, sun’iy intellekt javoblarini ilmiy manbalar bilan tekshirishini hamda kimyoviy bilimlarni o‘quv va hayotiy vaziyatlarda qo‘llashini tashkil etishga xizmat qiladi. Baholash vositalari o‘quvchining bilimdagi xatolarini aniqlash, unga qayta aloqa berish va keyingi topshiriqni tayyorgarligiga moslashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

kimyo bo‘yicha diagnostika va monitoring vositasi sifatida ishlab chiqilgan mualliflik raqamli platformasi umumiy o‘rta ta’lim amaliyotiga joriy etildi. Platforma 2024 va 2025 yillarida dastlab “xm.ziyopedia.uz” texnik platformasi va API-lokal integratsiyasi negizida sinovdan o‘tkazildi. Eksperiment yakunlanib, monitoring natijalari olingach, dasturiy mantiq to‘liq “chemia.uz” mustaqil domeniga o‘tkazildi va amaliyotga tavsiya etildi. Platforma 2024–2025–yillarida Navoiy, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarining 13 ta ta’lim muassasasida, 83 ta sinf-guruhda, 2 473 nafar o‘quvchi ishtirokida sinovdan o‘tkazilib, kirish va chiqish testlarini o‘tkazish, natijalarni avtomatik qayd etish, adaptiv topshiriq berish hamda sun’iy intellekt bilan tuzilmali muloqotni tashkil etish vositasi sifatida qo‘llanildi. Natijada o‘qituvchining diagnostika va monitoring bo‘yicha mehnat sarfi qisqarib, o‘quvchining har bir topshiriq bo‘yicha natijasi va sun’iy intellekt bilan ishlash faoliyati hujjatlashtiriladigan shaklga keltirildi;

kimyo fanini sun’iy intellekt asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish borasida maktab kimyo ta’limida kimyoni sun’iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiyalashgan holda o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqishda (Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan 2026-yil 16-yanvardagi ma’lumotnomasi) foydalanilgan. Natijada, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida anorganik kimyoni sun’iy intellekt asosida o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan chop etishga ruxsat etilgan “Kimyo” darsligi (Toshkent davlat texnika universiteti 2026-yil 22-apreldagi 01-9-05-309-sonli buyrug‘iga asosan nashr ruxsatnomasi olingan) – mazkur darslik oliy ta’lim tashkilotlari talabalari uchun tayyorlangan bo‘lib, unda tadqiqot doirasida shakllangan ayrim ilmiy-metodik yondashuvlardan qo‘shimcha manba sifatida foydalanilgan. Natijada o‘quv jarayonida o‘quvchilarning kimyoviy bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirish, darslik materiallarini raqamli ta’lim

manbalari bilan integratsiya qilish hamda o‘qitish jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga xizmat qiladi;

kimyo darsligi mazmuni noorganik kimyo fanini o‘qitish jarayonida talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda kimyoviy jarayonlarni tahlil qilish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan holda takomillashtirilgan. Darslikda bayon etilgan ilmiy-nazariy materiallar va amaliyotga yo‘naltirilgan ma’lumotlardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar Qo‘rqit Ota nomidagi Qizilo‘rda universiteti Tabiiy fanlar institutining “Biologiya, geografiya va kimyo” ta’lim dasturi yig‘ilishida ko‘rib chiqilib, ma’qullangan (Qo‘rqit Ota nomidagi Qizilo‘rda universiteti Tabiiy fanlar institutining 2026-yil 20-oktabrdagi 2-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, darslik noorganik kimyo fanidan ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish, talabalarning mustaqil ta’limini rivojlantirish hamda o‘quv-uslubiy materiallar mazmunini boyitishda foydalanish uchun tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi: Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plamlarida e’lon qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi: Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta darslik, 6 ta ilmiy maqola hamda 12 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlari materiali; O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlar 6 ta maqola (5 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalari va ularni aks ettiruvchi nashrlar o‘rtasidagi mazmuniy moslik IV-ilovada keltirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning matn qismi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida zamonaviy ta’lim tizimida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari va raqamli vositalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning tahliliy hamda tanqidiy fikrlashini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Xususan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8–9-sinflari kimyo fani misolida mavhum tushunchalarni o‘zlashtirish va o‘quvchilarda tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirishning dolzarbligi asoslab berilgan. Shuningdek, raqamli ta’lim muhitida interaktiv monitoring va adaptiv topshiriqlar vositasida o‘quvchilarning bilim olish dinamikasini kuzatish, ularning shaxsiy ta’lim traektoriyasini belgilash hamda ta’limda individual yondashuvni ta’minlash imkoniyatlari ochib berilgan.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchining fasilitator sifatidagi roli, generativ yordam va ilmiy verifikatsiya yondashuvlari tahlil qilinib, mualliflik “DAGVQO” sikli asosida o‘quvchilarning kimyoviy bilimlarni mustaqil egallashi hamda mantiqiy fikrlashini rivojlantirish mexanizmlari ko‘rsatilgan. Natijada, kimyo ta’limiga sun’iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilish orqali o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini

takomillashtirish zaruriyati dalillanib, tadqiqotning umumiy yo‘nalishi qisqacha bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Maktabda kimyo fanini sun’iy intellekt texnologiyalari asosida o‘qitishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kimyo fanini o‘qitishning joriy holati, SI texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari hamda cheklovlari yoritilgan. Shuningdek, mazkur texnologiyalarni loyihaviy ta’lim, hamkorlikdagi ta’lim va keys metodlari bilan integratsiyalash tamoyillari tahlil qilingan.

Nazariy tahlillar natijasida amaliyotdagi uchta asosiy metodik muammo aniqlandi: ko‘z bilan bevosita kuzatish qiyin bo‘lgan jarayonlarni tushuntirish; tayyorgarlik darajasi turli xil bo‘lgan o‘quvchilarga moslashtirilgan (adaptiv) yordam ko‘rsatish; SI tomonidan taqdim etilgan axborotning kimyoviy jihatdan to‘g‘riligini ilmiy tekshirish.

Konstruktiv yondashuvga ko‘ra, o‘quvchi savol berish, kuzatish, taqqoslash va xulosa chiqarish orqali yangi bilimlarni mustaqil shakllantiradi. Ijtimoiy hamkorlik jarayonida esa fikrlar o‘zaro muhokama qilinib, ilmiy dalillar bilan asoslanadi. Bu jarayonda sun’iy intellekt dastlabki tushuntirishlarni beruvchi yoki muqobil yechimlarni taklif qiluvchi vosita sifatida ishtirok etadi. Biroq SI javoblari o‘quvchi uchun tayyor xulosa hisoblanmaydi; haqiqiy bilim o‘quvchi ushbu axborotni ilmiy-tanqidiy tekshiruvdan o‘tkazganidan so‘ngina shakllanadi.

Loyihaga asoslangan ta’lim (PBL) yakuniy mahsulotni yaratish va uni himoya qilishga; hamkorlikdagi ta’lim (CL) umumiy maqsad sari intilish, o‘quvchilar o‘rtasida rollarni taqsimlash hamda individual mas’uliyatni shakllantirishga; keys metodi esa muammoli vaziyatlarni kimyoviy dalillar asosida tahlil qilishga yo‘naltiriladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi mazkur pedagogik metodlarni alohida-alohida qo‘llashda emas, balki ularni kimyo fanining muayyan mavzulari doirasida sun’iy intellekt vositalari hamda majburiy ilmiy verifikatsiya (tekshirish) amaliyoti bilan o‘zaro integratsiyalash orqali izohlanadi.

Ta’lim jarayonida generativ sun’iy intellekt vositalari, simulyatsiya modellari va real pedagogik (kimyoviy) tajribalar funksional jihatdan bir-biridan tubdan farq qiladi. Xususan, generativ vosita berilgan so‘rov (promt) asosida matnli yoki vizual javob shakllantirsa, simulyatsiya dasturlari belgilangan matematik-algoritmik parametrlar doirasida jarayonni modellashtiradi; real tajriba esa bevosita amaliy kuzatuv orqali ishonchli empirik dalillarni taqdim etadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, dasturda virtual laboratoriya yoki 3D formatdagi vizual tasvirlarning mavjudligi uni to‘laqonli sun’iy intellekt tizimiga aylantirmaydi. Shu sababli, simulyatsiya natijalarini real tajribada o‘lchangan empirik qiymatlar bilan aynanlashtirish hamda ularni bir-birining o‘rnida qabul qilish metodologik jihatdan noto‘g‘ri hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Kimyo fanini sun’iy intellekt texnologiyalari asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan pedagogik model, olti bosqichli metodik sikl, “Metallmaslar” va “Metallar” bo‘limlari bo‘yicha yaratilgan texnologik xaritalar, shuningdek, mualliflik asosida yaratilgan “chemia.uz” platformasi hamda unga integratsiya qilingan baholash tizimining mazmun-mohiyati batafsil yoritilgan.

Tavsiya etilayotgan pedagogik model ijtimoiy buyurtma va maqsad, metodologik asoslar, sun’iy intellektning ta’limdagi o‘rni, interfaol metodlar, o‘quv jarayoni, tajriba-sinov bosqichlari, baholash mezonlari hamda kutilayotgan natijalar kabi o‘zaro uzviy bog‘liq bloklarni o‘zida mujassam etadi.



1-rasm. SI bilan integratsiyalashgan kimyo ta’limining pedagogik modeli

Mazkur model bloklari o‘rtasidagi tarkibiy va mantiqiy bog‘lanishlar 1-rasmda o‘z aksini topgan. Unga ko‘ra, baholash natijalari asosida keyingi o‘quv topshiriqlari o‘quvchining o‘zlashtirish darajasiga moslashtiriladi (adaptivlashtiriladi). O‘qituvchi esa o‘quv traektoriyasidagi bu o‘zgarishlarni ilmiy va pedagogik jihatdan tahlil qilib, amaliy asoslab boradi.

Tadqiqotning mazmun doirasida umumta’lim maktablarining 8-sinf kursi bo‘yicha V, VI va VII guruh asosiy guruhcha metallmaslari; 9-sinf kursi bo‘yicha esa ishqoriy metallar, kalsiy (Ca), magniy (Mg), alyuminiy (Al), shuningdek, I va II guruh yonaki guruhcha metallari hamda xrom (Cr), marganets (Mn) va temir (Fe) mavzulari qamrab olingan. Kimyoviy guruhlar tasnifi dissertatsiyada tayanch manba sifatida olingan darsliklarga muvofiq qisqa shaklda keltirilgan. Har bir mavzu o‘quvchilarda nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va ularni hayotga tatbiq etish kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan vazifalar orqali ochib berilgan.

Tavsiya etilayotgan pedagogik modelni amaliyotda qo‘llashning asosiy shartlari quyidagilardan iborat: o‘qituvchining kimyoviy hamda raqamli kompetensiyaga ega bo‘lishi; o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos topshiriqlar tanlanishi; ilmiy jihatdan ishonchli manbalardan foydalanish; ta’lim jarayonida o‘quvchining individual hissasini inobatga oluvchi baholash tizimi; mavjud texnik imkoniyatlarga mos ish tartibini o‘rnatish; shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish (axborot xavfsizligi) hamda akademik halollik tamoyillariga qat’iy rioya etish.

Ushbu jarayonda o‘qituvchi SI tomonidan taqdim etilgan javoblarning ilmiy-metodik maqbulligini baholaydi, o‘quvchilar yo‘l qo‘ygan xatolarni tahlil qiladi va shunga asosan keyingi o‘quv topshiriqlarini belgilaydi. O‘quvchi esa o‘z so‘rovini (promt), SIdan olingan javobni, uni tekshirish uchun keltirilgan ilmiy dalillarni va o‘zining mustaqil xulosasini taqdim etadi.

Olti bosqichli metodik siklning har bir bosqichi o‘zining aniq kutilayotgan natijalariga ega (1-jadvalga qarang). Unda diagnostika va o‘quvchilarga ko‘rsatiladigan pedagogik yordam ularning individual tayyorgarlik darajasiga moslashtiriladi (adaptivlashtiriladi); olingan axborotlarning ilmiy tekshiruvi (verifikatsiyasi) ijtimoiy hamkorlikda bajariladi; yakuniy pedagogik qaror qabul qilish esa o‘qituvchi vakolatida qoladi.

1-jadval

Metodik siklning bosqichlari va kutilayotgan natijalari

Bosqich	Asosiy faoliyat	Natija
Diagnostika	Boshlang‘ich bilim darajasini va mavjud bo‘shliqlarni (xatolarni) aniqlash	Qisqa test (savol-javob) natijalari va o‘quvchining xatolar profili
Adaptiv topshiriq	Topshiriqning murakkablik darajasi va ko‘rsatiladigan pedagogik yordam hajmini o‘quvchiga moslashtirish	Bazaviy, o‘rta yoki yuqori darajadagi yordamni o‘z ichiga olgan differensial topshiriq
Generativ yordam	Tasdiqlangan so‘rov (promt) asosida sun’iy intellektdan dastlabki ilmiy izoh olish	Maqsadli shakllantirilgan so‘rov va SI tomonidan taqdim etilgan birlamchi javob

Bosqich	Asosiy faoliyat	Natija
Ilmiy verifikatsiya	SI taqdim etgan ma’lumotlarni (da’voni) darslik va ishonchli kimyoviy dalillar asosida ilmiy tekshirish	Axborotning haqiqiyligi tasdiqlangan, qisman qabul qilingan yoki butunlay rad etilgan ilmiy xulosa
Qayta aloqa	Aniqlangan xatolarni tuzatish (korreksiyalash) va mustaqil xulosani ilmiy asoslash	Kimyoviy dalillangan, tuzatilgan yakuniy javob hamda xulosa
O‘qituvchi qarori	O‘quvchi faoliyatini (izlanishini) baholash hamda navbatdagi o‘quv traektoriyasini belgilash	O‘quvchining individual bahosi hamda keyingi bosqich uchun yangi adaptiv topshiriq

Taklif etilayotgan metodik sikl o‘quv jarayonining dars va mustaqil ta’lim bosqichlariga taqsimlanadi. Uning kengaytirilgan shaklida diagnostika va adaptiv topshiriqlar avvalgi mashg‘ulotda belgilanib, o‘quvchilar mustaqil ish jarayonida generativ SI resurslaridan foydalanadilar. Navbatdagi darsda esa bevosita verifikatsiya, qayta aloqa va natijalarni baholash bosqichlari amalga oshiriladi. Siklning bir darsga mo‘ljallangan shaklida esa o‘qituvchi nazoratidagi umumiy SI manbalariga tayaniladi; biroq bunda ham o‘quvchining ilmiy tekshiruvi hamda pedagogning xulosa chiqarish bosqichlari qisqartirilmaydi.

Kiritilayotgan adaptivlik tamoyili o‘quvchini muayyan o‘zlashtirish darajasiga qat’iy biriktirib qo‘yishni nazarda tutmaydi. Aksincha, bir xil o‘quv vazifasini bajarayotgan o‘quvchilar ularning ehtiyojiga mos differensial pedagogik ko‘mak bilan ta’minlanadi: topshiriqlar tayanch tushunchalar, yo‘naltiruvchi savollar, qisman to‘ldirilgan tekshiruv jadvallari yoki to‘liq mustaqil tahlil shaklida tabaqalashtiriladi. Keyingi o‘quv bosqichlarida ushbu ko‘mak hajmi o‘quvchining o‘sish dinamikasiga qarab qayta-qayta ko‘rib chiqiladi.

Olingan axborotlarni ilmiy verifikatsiyalash (tekshirish) amaliyoti quyidagi to‘rt bosqichda bajariladi:

1. SI javoblarini alohida da’vo va gipotezalarga ajratish;
2. Ularni tayanch darslik hamda tasdiqlangan ilmiy manbalar bilan qiyoslash;
3. Axborotning ilmiy to‘g‘rilik darajasini aniqlash;
4. Yakuniy xulosa hamda cheklovlarni shakllantirish.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, SI tomonidan ko‘rsatilgan manba (havola)ning mavjudligi uning ishonchliligini anglatmaydi; ko‘rsatilgan manba mazmunan SI da’vosini tasdiqlashi shart. Manba aniqlanmagan (yoki soxta bo‘lgan) holatlarda, ushbu axborot o‘quvchining yakuniy ilmiy xulosasiga fakt sifatida kiritilmaydi.

Mazkur yondashuvni keys-stadi va texnologik xaritalar orqali amaliyotga joriy etish maqsadida «Jo‘mrakdan oqayotgan suv siri: foydami yoki zarar?» nomli muammoli keys ishlab chiqildi. Ushbu keys “Xlorning suv bilan reaksiyasi” mavzusiga bog‘langan bo‘lib, vaziyatda o‘quvchi suvning sutsimon xiraligi va o‘tkir hidini payqaydi hamda tengdoshlarining suv haqidagi o‘zaro zid fikrlariga duch keladi. Bu o‘rinda o‘quvchining asosiy vazifasi tayyor hukmni takrorlash emas, balki muammoning kimyoviy asosini tahlil qilish va axborot cheklovlarini ajratib ko‘rsatishdan iboratdir.

Kimyoviy da’voni ilmiy tekshirishda xlorning suv bilan ta’sirlashuv reaksiyasi tenglamasidan (1) foydalaniladi. Bunda o‘quvchilar reaksiya tenglamasining ikki qismidagi atomlar sonini va xlorning oksidlanish darajalaridagi o‘zgarishlarni o‘zaro solishtiradilar:

(1)

bunda Cl_2 — molekulyar xlor; H_2O — suv;
HCl — xlorid kislota; HClO — gipoxlorit kislota;
⇌ — qaytar reaksiya belgisi.

Reaksiya tenglamasining o‘ng va chap tomonlarida 2 ta xlor, 2 ta vodorod hamda 1 ta kislorod atomi mavjudligi kuzatiladi. Jarayon davomida xlorning oksidlanish darajasi 0 dan −1 va +1 ga o‘zgarib, disproporsiyalanish (o‘z-o‘zidan oksidlanish-qaytarilish) holati yuzaga keladi. Jarayonda ishtirok etuvchi molekulyar xlor, gipoxlorit kislota va xlorid ionlari xossalari jihatidan o‘zaro tubdan farq qiladi. O‘quvchilar mazkur farqlarni ilmiy tahlil qilish orqali, faqatgina modda nomlariga (yoki ularning o‘zaklariga) asoslanib chiqariladigan noto‘g‘ri umumlashtirishlarning oldini oladilar (tuzatadilar).

Amaliy mashg‘ulotda o‘quvchilar uch guruhga bo‘lingan holda, bitta muammoli keysning o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi jihatlarini tahlil qiladilar: 1) kimyoviy jarayon mexanizmi; 2) bildirilgan da’volarning ilmiy dalillari va cheklovlari; 3) yakuniy amaliy qaror. Hamkorlikdagi ta’lim tamoyiliga ko‘ra, har bir o‘quvchi kamida bitta da’voni asoslash uchun individual mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Yakunda guruhlar tomonidan «Da’vo — dalil — cheklov — qaror» mantiqiy zanjiriga asoslangan umumiy taqdimot plakati shakllantiriladi.

Mazkur keys-stadi metodiga asoslangan 45 daqiqalik darsning qisqacha tuzilishi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Keys-stadi metodiga asoslangan 45 daqiqalik darsning qisqacha tuzilishi

Dars qismi	Vaqt	Pedagogik faoliyat mazmuni va kutilayotgan natijalar
Tashkiliy qism	5 daq.	Dars maqsadini e’lon qilish, guruhlarda rollarni taqsimlash hamda amaliy va raqamli xavfsizlik tartib-qoidalarini belgilash.
O‘tilgan mavzuni takrorlash	10 daq.	Xlor, suv va oksidlanish darajalariga oid diagnostik savol-javob o‘tkazish; o‘quvchilar ehtiyojiga ko‘ra differensial yordam kartalarini taqsimlash.
Yangi bilimlarni shakllantirish	15 daq.	Muammoli keysni tahlil qilish, kimyoviy reaksiya tenglamasi mohiyatini ochish, SI da’vosini ishonchli ilmiy manbalar bilan verifikatsiyalash (tekshirish).
Mustahkamlash	10 daq.	Uchta ishchi guruh dalillarini o‘zaro taqqoslash va muhokama qilish, taqdimot plakati uchun yagona yakuniy ilmiy xulosa ishlab chiqish.
Dars yakuni va uyga vazifa	5 daq.	(“Chiqish kartasi” usuli orqali) va o‘qituvchining yakuniy qayta aloqasi (fidbeki); mustaqil ishni davom ettirish uchun individual topshiriqlar berish.

Izoh: Uy vazifasini bajarish uchun 15–20 daqiqa vaqt ajratiladi. Keyingi darsdagi qisqa himoya o‘quvchining avvalgi formativ bahosini to‘ldirishga xizmat qiladi, unga takroriy 10 ballik baho qo‘shilmaydi.

Texnik ta’minot yetarli bo‘lgan sharoitda sun’iy intellekt bilan muloqot o‘qituvchi nazorati ostida, mavjud raqamli qurilmalar orqali tashkil etilib, barcha so‘rov va javoblar tizimli qayd etib boriladi. Internet tarmog‘i yoki raqamli qurilmalar cheklangan holatlarda esa, o‘qituvchi oldindan tayyorlangan SI javoblari, bosma manba kartalari va tekshiruv varaqalaridan foydalanadi. Texnik sharoit qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘qituvchi tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan pedagogik vazifa — axborotni ilmiy tekshirish (verifikatsiyalash) va asoslangan xulosa chiqarish amaliyoti o‘zgarmas ustuvorlik kasb etadi.

Keys topshiriqlarini bajarish davomida laboratoriya sharoitida xlor gazi ajratib olinmasligi, suvga turli reagentlar qo‘shilmasligi hamda noma’lum suv namunalarining iste’mol qilinmasligi (ichilmasligi) qat’iy nazorat qilinadi. O‘quvchilarning vizual kuzatuvi va umumiy kimyoviy bilimlari asosidagi xulosalar muayyan suv namunasi bo‘yicha beriladigan rasmiy sanitariya-epidemiologik xulosasidan farq qilishi uqtiriladi. Shuningdek, kundalik hayotda noodatiy hid yoki rang aniqlanganda, o‘quvchi zudlik bilan mas’ul shaxslarga xabar berishi zarurligi tushuntiriladi. Bu yondashuv o‘quvchilarda kimyoviy savodxonlik hamda ijtimoiy mas’uliyatli qaror qabul qilish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni amaliyotda namoyon etadi.

Tadqiqotning o‘quv-metodik ta’minoti va baholash jarayonida mualliflik «chemia.uz» platformasi — test natijalarini qayd etish, interfaol topshiriq va resurslarni taqdim qilish, SI bilan tuzilmali muloqotni yo‘lga qo‘yish hamda tekshiruv natijalarini saqlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Tajriba va nazorat guruhlarida bilimlarni baholash vositasining (platformaning) yagonaligi tadqiqotdagi o‘lchov sharoitlarining xolisligi va ishonchliligini ta’minlaydi. Tadqiqotning asosiy metodik farqi raqamli platformadan foydalanishda emas, balki aynan tajriba guruhida SI, PBL (loyihaviy ta’lim), CL (hamkorlikdagi ta’lim) va keys metodlarining olti bosqichli sikl asosida o‘zaro kompleks integratsiyalashuvidadir.

Formativ baholash ta’lim olish jarayonini uzluksiz takomillashtirib borish maqsadida qo‘llanadi (3-jadvalga qarang). Bunda guruhning umumiy mahsuloti o‘quvchilarning individual hissasi (ishtiroki) bilan birgalikda kompleks baholanadi: ishonchli manba topish, xatolarni aniqlash, korreksiyani ilmiy asoslash va og‘zaki javob berish (himoya) kabi mezonlar alohida hisobga olinadi.

3-jadval

O‘quvchining individual faoliyatini baholashning 10 ballik formativ rubrikasi

Mezon	Eng yuqori ball	Kuzatiladigan dalil
Muammoni anglash va tahlil qilish	2	Muammoli vaziyatni to‘g‘ri baholash hamda yechilishi lozim bo‘lgan asosiy savolni ajratib ko‘rsata olishi.

Mezon	Eng yuqori ball	Kuzatiladigan dalil
Kimyoviy-ilmiy asoslash	3	Kimyoviy tushunchalarni o‘rinli qo‘llashi, reaksiya tenglamalarini to‘g‘ri yozishi va aniq ilmiy dalillar keltirishi.
SI ma’lumotlarini verifikatsiyalash	2	SI uchun to‘g‘ri so‘rov (promt) tuza olishi, olingan javobni manbalar orqali tekshirishi, xatolarni tuzatishi va akademik halollikka rioya etishi.
Taqdimot va himoya qilish	2	Fikrni mantiqiy izchillikda bayon etishi hamda berilgan savollarga ilmiy asoslangan javob qaytarishi.
Ijodkorlik va mustaqil fikrlash	1	Ilmiy dalillarga tayangan holda muammoning original (mustaqil) yechimini yoki o‘ziga xos xulosasini taqdim etishi.

Izoh: Mazkur rubrika bo‘yicha o‘zlashtirishning maksimal ko‘rsatkichi 10 ballni tashkil etadi. Ushbu formativ baholash natijalari o‘quvchining darsdagi faoliyatini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, ular tadqiqot samaradorligini o‘lchashga xizmat qiluvchi 20 topshiriqli nazorat testi ballariga qo‘shib hisoblanmaydi (umumlashtirilmaydi).

Baholash rubrikasidagi sun’iy intellekt (SI) bilan ishlash mezoni quyidagi to‘rtta asosiy indikator asosida baholanadi:

1. Maqsadli so‘rovning (promtning) to‘g‘ri shakllantirilishi;
2. SIdan olingan javobning ilmiy tekshirilishi (verifikatsiyasi);
3. Axborotdagi xatolarning aniqlanishi va tuzatilishi (korreksiyalanishi);
4. Akademik halollik tamoyiliga rioya etgan holda, SI yordamidan foydalanilganligini ochiq ko‘rsatish.

Ushbu indikatorlarning har biri o‘quvchi tomonidan bajarilish sifatiga ko‘ra 0; 0,25 yoki 0,5 ballik shkala bilan o‘lchanadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, garchi raqamli platforma kiritilgan javoblar kaliti asosida test natijalarini avtomatik tarzda hisoblab chiqsa-da, o‘quvchining joriy amaliy faoliyatiga qo‘yiladigan yakuniy pedagogik baho hamda uning navbatdagi o‘quv vazifasi (traektoriyasi) faqatgina o‘qituvchi tomonidan belgilanadi.

Dissertatsiyaning **uchinchi bobida** tajriba-sinov ishlarini tashkil etish jarayoni va olingan natijalarning matematik-statistik tahlili yoritilgan. Tadqiqot doirasida 2024–2025–yillarda o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarida dastlabki (kirish) va yakuniy (chiqish) diagnostika natijalariga asoslangan kvazi-eksperimental dizayn qo‘llanildi. Bu yondashuvda o‘quvchilarni guruhlarga individual tasodifiy taqsimlash amalga oshirilmagan, balki maktablardagi mavjud sinflar tarkibi asl holicha qat’iy saqlab qolingan. Tadqiqot xolisligini ta’minlash maqsadida tajriba va nazorat guruhlarida o‘quv dasturi, mavzularning o‘tilish ketma-ketligi hamda ajratilgan soatlar hajmi to‘laqonli bir xil bo‘lishi ta’minlandi.

Tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichida jami 14 ta maktabdan 85 ta sinf va 2 524 nafar o‘quvchi ro‘yxatga olingan. Biroq, Payariq tumanidagi 33-maktabda eksperiment uchun mos nazorat guruhi to‘liq shakllanmaganligi sababli, 2 ta

sinfdagi 51 nafar o‘quvchining natijalari guruhlararo qiyosiy tahlildan chiqarildi. Natijada, matematik-statistik tahlilga tortilgan yakuniy tanlanma (baza) Samarqand, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlaridagi jami 13 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabi, 83 ta sinf hamda 2 473 nafar 8–9-sinf o‘quvchisidan iborat bo‘ldi. Shuni ta’kidlash lozimki, yakuniy tahlilga faqatgina ham kirish, ham chiqish test sinovlarida to‘liq ishtirok etgan o‘quvchilarning natijalari kiritildi.

Tadqiqot tanlanmasining guruhlar va sinflar kesimidagi tarkibiy taqsimoti 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Tadqiqot tanlanmasining guruhlar va sinflar kesimidagi tarkibi

Ko‘rsatkich	Tajriba	Nazorat	Jami
O‘quvchilar	1 275	1 198	2 473
Sinflar	41	42	83
8-sinf o‘quvchilari	672	616	1 288
9-sinf o‘quvchilari	603	582	1 185
Maktablar	13	13	13

Tadqiqotdagi statistik kuzatuvlar ierarxik (ko‘p pog‘onali) tuzilishga ega bo‘lib, unda o‘quvchilar sinflarga, sinflar esa maktablarga birlashgan. Shu sababli, statistik tahlilda dastlabki (kirish) test ballari nazorat o‘zgaruvchisi sifatida olinib, natijalar sinflar bo‘yicha klaster-barqaror (cluster-robust) standart xatolar yordamida baholandi. Styudentning an’anaviy individual t-mezoni (t-test) esa qo‘shimcha (yordamchi) taqqoslash vazifasini bajardi.

Tadqiqotda bilimlarni baholash vositasi sifatida 20 ta dixotomik (ikki qiymatli) topshiriqdan iborat nazorat testidan foydalanildi. Bunda har bir to‘g‘ri javob 1 ball, noto‘g‘ri javob esa 0 ball bilan baholandi. Kirish va chiqish testlari yagona mazmuniy spetsifikatsiyaga asoslangan, o‘zaro parallel variantlar hisoblanadi. Barcha statistik hisob-kitoblar 0–20 ballik birlamchi (xom) shkala asosida amalga oshirildi.

Dixotomik topshiriqlardan iborat testning ichki muvofiqligi (ishonchliligi) Kuder-Richardsonning KR-20 formulasiga ekvivalent bo‘lgan Kronbax alfa (Cronbach’s alpha) koeffitsiyenti orqali aniqlandi (2-formulaga qarang).

(2)

bunda α — test ichki muvofiqligi koeffitsiyenti;

k — topshiriqlar soni (20);

s_j^2 — j-topshiriq balining tanlanma dispersiyasi;

s_X^2 — jami test balining tanlanma dispersiyasi; Σ — topshiriqlar bo‘yicha yig‘indi.

Nazorat testlarining ichki muvofiqlik ko‘rsatkichlari 5-jadvalda keltirilgan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, alfa koeffitsiyentining yuqori qiymati o‘lchov vositasining (testning) barcha jihatlar bo‘yicha validligini (yaroqliligini) to‘laqonli isbotlamaydi; u faqatgina test topshiriqlarining o‘zaro ichki muvofiqligini (konsistentligini) tavsiflashga xizmat qiladi.

5-jadval

Testlarning ichki muvofiqligi

Test	k	n	Cronbach α	95% IO
Kirish	20	2 473	0,762	[0,748; 0,776]
Chiqish	20	2 473	0,768	[0,754; 0,781]

Izoh. IO — ishonch oralig‘i.

Dissertatsiyada jami 40 ta test topshirig‘ining har biri bo‘yicha olingan alohida ball hamda qolgan barcha topshiriqlar yig‘indisi o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti kamida 0,20 ni tashkil etganligi qayd qilingan.

Tadqiqotning 6-jadvalida tajriba va nazorat guruhlarining dastlabki (kirish) va yakuniy (chiqish) test natijalari hamda o‘zlashtirish dinamikasi (o‘sish ko‘rsatkichlari) qiyosiy tahlil qilingan.


6-jadval

O‘quvchilarning bilim ko‘rsatkichlari bo‘yicha tavsifiy statistika natijalari

Guruh	O‘lchov	n	M	SD
